



Organizing the educational process while taking into account the unique needs and abilities of each learner

Zulxumor MIRZAEVA¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 25 June 2025

Available online

15 July 2025

Keywords:

differentiated instruction,
modern education,
educational technology,
learning methods,
methodology,
individual approach.

ABSTRACT

This article examines a crucial aspect of organizing the educational process: the formation of an effective teaching methodology that takes into account the unique needs and abilities of each learner. The importance of an individualized approach in pedagogical activities is emphasized, which involves selecting appropriate educational materials based on students' preparedness levels, interests, and learning styles, as well as organizing lessons using various learning methods. The study highlights how this approach can enhance learners' motivation, promote deep assimilation of knowledge, and improve overall learning outcomes. Additionally, the article analyzes the use of modern educational technologies and practical methods of differentiated instruction.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4-pp63-66>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Har bir o'rganuvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

differensial ta'lim,
zamonaviy ta'lim,
ta'lim texnologiyasi,
o'rganish usullari,
metod,
individual yondashuv.

Ushbu maqolada ta'lim jarayonini tashkil etishning muhim jihati, ya'ni har bir o'rganuvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda samarali o'qitish metodikasini shakllantirish masalasi o'rganib chiqiladi. Pedagogik faoliyatda individual yondashuv, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va o'rganish uslublarini aniqlash asosida mos o'quv materiallarini tanlash hamda turli o'rganish usullaridan foydalanib darslarni tashkil etishning ahamiyati ta'kidlanadi. Tadqiqotda ushbu yondashuvda

¹ Teacher, Andijan State Institute of Foreign Languages. E-mail: zulxumorm.1990@gmail.com

o'rganuvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilimlarini chuqur o'zlashtirishlari va umumiy o'quv natijalarini yaxshilash yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va differensial ta'limning amaliy usullari tahlil qilinadi.

Организация образовательного процесса с учетом индивидуальных потребностей и способностей каждого обучающегося

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

дифференцированное обучение, современное образование, образовательные технологии, методы обучения, методика, индивидуальный подход.

В данной статье рассматривается важный аспект организации образовательного процесса, а именно формирование эффективных методик обучения с учетом индивидуальных потребностей и способностей каждого обучающегося. Подчеркивается важность индивидуального подхода в педагогической деятельности, выбора соответствующих учебных материалов на основе определения уровня подготовки, интересов и стилей обучения учащихся, а также организации уроков с использованием различных методов обучения. В исследовании освещается повышение мотивации обучающихся, более глубокое усвоение знаний и улучшение общих результатов обучения при таком подходе. Кроме того, анализируется использование современных образовательных технологий и практические методы дифференцированного обучения.

Bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimi oldidagi vazifalardan biri har bir o'quvchi va talabani kelajak hayotga tayyorlash, ularning shaxsiy salohiyatini to'liq ochishdan iboratdir. Ushbu murakkab jarayonda ta'limning sifatini oshirishda o'qituvchining roli beqiyosdir. Biroq auditoriyalarda o'rganuvchilarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari, qobiliyatlari va o'rganish uslublari bir xil emas. Ba'zan o'qituvchilar bir xil yondashuv hamda usullardan foydalanishi oqibatida ba'zi o'rganuvchilar ortda qolib ketsa, ba'zilari esa zerikib yoki o'z qobiliyatlarini to'liq ishga sololmay qolish holatlari kuzatiladi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytirishi ko'rinmoqda. Shu sababli, har bir o'rganuvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, mos o'quv materiallarini tanlash hamda turli o'rganish usullaridan foydalanib darslarni tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb pedagogik muammolaridan biridir.

O'rganuvchilarning ta'lim sifatini oshirishda amaliyotda birga ishlashni differensial ta'limga muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun turli xil usullardan foydalaniladi. Bu usullardan foydalanishning asosiy maqsadlaridan biri har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning hamkorlikda o'rganishini ta'minlashdir. Guruhlarni shakllantirishda eng avvalo qobiliyatni hisobga olish zarurdir. O'rganuvchilarning qobiliyatlariga qarab bir xil qobiliyatli guruhlarini tashkil qilish mumkin. Bir xil bilim darajasiga yoki qobiliyatga ega bo'lgan o'rganuvchilar bir guruhga

birlashtiriladi. Bu o'qituvchiga ma'lum bir darajadagi o'rganuvchilar uchun moslashgan topshiriqlar berishga yordam beradi. Masalan, kuchli o'rganuvchilar uchun murakkabroq muammolar, o'rtacha o'rganuvchilar uchun esa o'z darajasigi mashqlar, topshiriqlar beriladi.

Keyingi bo'lish usulida turli qobiliyatli o'rganuvchilarni tayinlab olishimiz mumkin. Turli bilim darajalariga, qobiliyatlarga va o'rganish uslublariga ega bo'lgan o'quvchilar bir guruhga birlashtiriladi. Mazkur usulda kuchli o'quvchilar zaifroq o'quvchilarga yordam berish orqali ham o'zlarini bilimlarini mustahkamlaydilar, zaifroq o'rganuvchilar esa tengdoshlaridan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday guruhlarda topshiriqlar shunday tuzilishi kerakki, har bir o'rganuvchi topshiriqni bajarishda ishtirok etishi kerak.

Navbatdagi guruhlariga bo'lish usulida biz o'rganuvchilarni qiziqishlariga qarab guruhlariga ajratamiz. O'rganuvchilar ma'lum bir mavzu yoki loyiha bo'yicha o'zlarining qiziqishlariga ko'ra guruhlariga birlashadilar. Bu ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Keng tarqalgan usullardan biri bu tasodifiy guruhlash hisoblanadi. O'rganuvchilar raqamlar, kartochkalar yoki boshqa tasodifiy usullar orqali guruhlariga bo'linadi. Bu ba'zan yangi hamkorliklar o'rnatishga va o'rganuvchilarning bir birlari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bunday guruhlarda ishlash strukturalangan bo'lib, unda o'rganuvchilar bir-birlarini to'ldirgan holda bilimlarni mustahkamlashadi. Juft yoki guruh bo'lib ishlash mumkin.

- “Juft bo'lib ishlash” – Pair Work: o'rganuvchilar birgalikda topshiriqni bajaradi. Bu o'rganuvchilarning bir-biriga fikrlarini tushuntirishiga, savol berishiga va birgalikda muammoli vaziyatga yechim topishiga imkon beradi. Differensial yondashuv – juftlikdagi o'rganuvchilarning qobiliyat darajasi bir xil bo'lishi mumkin bir xil qiyinchilikdagi topshiriqni bajarish uchun yoki turlicha bo'lishi mumkin.

- “Jamoda birgalikda ishlash” Group Work. Kichik guruhlar tuzilib, har bir o'rganuvchining guruhdagi o'ziga xos roli bo'lishi kerak. Rahbar, yozuvchi, ma'ruzachi, nazoratchi). Differensial yondashuv: guruh ichida topshiriqlar shunday taqsimlanadiki, har bir o'quvchi o'z kuchiga mos ishni bajaradi va umumiy natijaga erishish uchun o'z hissasini qo'shadi.

O'rganuvchilardagi individual farqlarni, ayniqsa, ularning turli o'rganish uslublarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini differensiallashtirish, o'rganuvchilarning kognitiv va ijtimoiylashuv jarayonlarida o'z salohiyatini maksimal darajada ochishida muhim omil hisoblanadi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir o'rganuvchilar o'rganish strategiyalari, ma'lumotni qayta ishlashda, konsentratsiya qobiliyati, motivatsiya darajasi bo'yicha sezilarli individual farqlarga ega. Ushbu farqlarni inobatga olmasdan, bir xil standartdagi ta'lim usullarini qo'llash, ko'p o'rganuvchilar uchun o'quv materialini samarali o'zlashtira olmasligiga, o'rganishga bo'lgan motivatsiyasining pasayishiga va bilish va bilimni ko'rsata olmaslik holatiga olib keladi.

Ta'limni differensiallashtirish, o'rganuvchilarning individual xususiyatlariga moslashuvchan yondashuvni taqozo etadi. Bu quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

1. Kognitiv o'zlashtirishning chuqurlashtirish: o'rganuvchilarning afzal ko'rgan o'rganish uslubiga mos ravishda taqdim etilgan ma'lumotni kengaytiradi. Masalan, vizual o'rganuvchiga sxemalar yoki grafiklar orqali ma'lumot berish, miyaning ma'lumotni qayta ishlashini faollashtiradi, bu esa tushunish va eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

2. O'zi mustaqil ishlash orqali ta'lim samaradorligini oshirish: o'rganuvchiga o'z imkoniyatlariga moslashtirilgan, ammo biroz rag'batlantiruvchi (shu bilan birga, erishilishi mumkin bo'lgan) topshiriqlar berilganda, u o'zining “yaqin rivojlanish zonasi”

(zone of proximal development) da ishlaydi. Bu muvaffaqiyatli bajarilgan vazifalar orqali o'z-o'zini samaradorlik (self-efficacy) tuyg'usini rivojlantiradi va o'rganuvchi o'z qobiliyatlariga ko'proq ishonishni boshlaydi. **Lev Vygotskiyning** "yaqin rivojlanish zonasi" (Zone of Proximal Development – ZPD) konsepsiyasi ham differensial ta'limning asosini tashkil etadi, chunki u o'quvchining o'zi erisha oladigan darajadan biroz yuqoriroq, lekin kattalar yoki tengdoshlar yordami bilan erishadigan natijalarga e'tibor qaratgan.

3. Motivatsiya olish. Qiziqishlarga moslashtirilgan va o'ziga nisbatan yaqin bo'lgan mazmun, shuningdek, turli o'quv uslublari qamrab olgan jarayonlar, o'quvchining ichki motivatsiyasini (intrinsic), tashqi motivatsiya (extrinsic) va ta'lim faoliyatiga nisbatan jalb etilishini (engagement) sezilarli darajada oshiradi.

4. Ijtimoiy rivojlanish. Turli qobiliyatli va uslubli o'rganuvchilar bilan hamkorlikda ishlash (cooperative learning), ularda empatiya, hamdardlik, muammolarni birgalikda hal qilish ko'nikmalari, shuningdek, turli nuqtai nazarlarni tushunish va hurmat qilish kabi ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu umumiy sinf muhitining ijobiy bo'lishiga yordam beradi.

Differensiallashtirishni amalga oshirish uchun pedagoglar o'quv maqsadlari (learning objectives), o'quv mazmuni, o'qitish jarayoni va baholash kabi komponentlarni tizimli ravishda moslashtirishlari lozim. Bu esa har bir o'rganuvchi uchun individual ehtiyojlari qondirilgan, ma'noli va samarali o'quv tajribasini yaratishga zamin yaratadi, yakunida esa o'rganuvchilarning o'quv potensialini to'liq ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi.

Ko'plab ilmiy tadqiqotlar differensiallashtirilgan ta'limning samaradorligini tasdiqlaganini aniqladik. differensiallashtirilgan ta'lim olgan o'rganuvchilar, ayniqsa akademik qiyinchiliklarga duch kelganlar, o'qish, matematika va boshqa fanlarda sezilarli yaxshilanishlarga erishadilar. Bu natijalar standartlashtirilgan testlarda ham o'z aksini topadi. Differensiallashtirilgan sinflarda o'rganuvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishlari va faol ishtiroklari oshadi. Ular mavzularni yanada qiziqarliroq va o'zlari uchun dolzarbroq deb bilishadi. O'rganuvchilar o'zlariga mos keladigan topshiriqlarni bajarish orqali muvaffaqiyatga erishgach, ularning o'zlariga bo'lgan ishonchi va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi ortadi. Turli xil o'rganuvchilarni o'z ichiga olgan guruh ishlarida qatnashish, hamkorlik, muammolarni hal qilish kabi ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Differensiallashtirish o'qituvchilarga har bir o'rganuvchi bilan individual munosabatda bo'lish, ularning ehtiyojlarini chuqurroq tushunish va ta'lim jarayonini yanada samarali boshqarish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'rganuvchilarning individual farqlarni, xususan, ularning kognitiv uslublari, bilim darajalari va motivatsion omillarini hisobga olgan holda ta'limni differensiallashtirish konsepsiyasi ilmiy jihatdan tobora mustahkamlanib bormoqda va pedagoglar uchun o'qitish jarayonini optimallashtirish, har bir o'rganuvchining o'qish, o'rganish potensialini to'liq ro'yobga chiqarish hamda inklyuziv va samarali ta'lim muhitini yaratish uchun muhim amaliy va nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ie May Freeman, Ed.D. Differentiated Instruction and Its Impact on Diverse Learners. Journal of Education and Human Development. Vol. 4, No. 4, pp. 147-154, ISSN: 2334-296X. 2015.

2. Delisle J., Galbraith J., J. When Gifted Kids Don't Have All the Answers. Minneapolis. 2015.

3. <https://www.simplypsychology.org/zone-of-proximal-development.html>